

O‘RTA OSIYO KO‘CHMANCHI CHORVADORLARI TARIXINING O‘RGANILISHI

Aliboyev Dilshod Davron o‘g‘li
Oribova Mohichehra Marufjon qizi
Fazliyeva Dilnoza Shermatjon qizi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O‘rta Osiyo hududida qadimdan yashab kelgan ko‘chmanchi chorvador xalqlarning tarixini o‘rganish jarayoni yoritilgan. Tadqiqotda bu xalqlarning ijtimoiy-siyosiy hayoti, xo‘jalik faoliyati va madaniy merosi tarixiy manbalar va zamonaviy ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilingan. Ko‘chmanchi chorvadorlar jamiyatining rivojlanish bosqichlari, ularning davlat tuzilmalariga ta’siri, migratsiya jarayonlari va boshqa xalqlar bilan aloqalari muhim tarixiy hodisalar kontekstida ko‘rib chiqiladi. Shu bilan birga, tarixiy-etnografik manbalarni o‘rganish asosida bu xalqlarning tarixiy rivojlanishini aniqlash va ularning O‘rta Osiyo sivilizatsiyasi shakllanishidagi o‘rni ochib beriladi.*

Annotation: *This article covers the process of studying the history of nomadic pastoral peoples who have lived in Central Asia since ancient times. The study analyzes the socio-political life, economic activity and cultural heritage of these peoples on the basis of historical sources and modern scientific literature. The stages of development of nomadic pastoralist societies, their influence on state structures, migration processes and relations with other peoples are considered in the context of important historical events. At the same time, based on the study of historical and ethnographic sources, the historical development of these peoples and their role in the formation of Central Asian civilization are revealed.*

Kalit so‘zlar: *O‘rta Osiyo, ko‘chmanchi chorvadorlar, tarixshunoslik, etnografiya, davlatlilik, migratsiya, qadimgi jamiyat, tarixiy manbalar.*

Keywords: *Central Asia, nomadic herders, historiography, ethnography, statehood, migration, ancient society, historical sources.*

Kirish. Ko‘chmanchilar dunyosida ilk sinfiy munosabatlar va davlatchilikning rivojlanishi to‘g‘risida fanda har xil g‘oyalar kurashi mavjud. A.I. Pershis va A.M. Xazanovlar, "ko‘chmanchilar o‘z holicha faqat ilk sinfiy munosabatlar darajasigacha

o'sishi mumkin. Keyingi rivoji faqat qo'shni dehqon va shahar jamoasi ta'sirida rivojlanadi" degan bo'lsa, Yu.V. Pavlenko, "ko'chmanchilar dunyosi o'z holicha, ya'ni sivilizatsiyalashgan qo'shni jamoalardan tashqarida rivojlanganda, ularga bo'ysungan dehqon va shahar jamoalari bo'lmaganda, ulardan soliqlar yig'ilmaganda va nihoyat ularning bir guruhi o'troqlashmaganda, o'troqlashgan hududlarda shahar madaniyatining paydo bo'lishi jarayonlari kechmaganda ko'chmanchilar jamoasi hattoki ilk sinfiy munosabatlar darajasiga ham chiqa olmagan bo'lardi", deb hisoblaydi.

V.M. Masson Ahamoniylargacha bo'lgan O'rta Osiyoning siyosiy xaritasini quyidagicha tasavvur qiladi: «Baqtriyada yirik siyosiy birlashma (davlat) bo'lgan, uning madaniy va siyosiy doirasi Marg'iyona, mumkinki, Ariylar va So'g'diylargacha yoyilgan. Ikkinchi siyosiy kuch ko'chmanchilar dunyosidir. Ularning har xil konfederatsiyasi bo'lgan va turli ko'chmanchi qabilalarni birlashtirib turgan. Mil. av. VI asr o'rtalarida gegemonlik rolini Massagetlar bajargan»³³.

Ko'chmanchilik tarixiy shakllangan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tizimi va xo'jalik-madaniy tur sifatida miloddan avvalgi II ming yillikda shakllangan. Ko'chmanchi hayot tarzining asosi chorvachilik edi, odamlar yangi yaylovlarni izlab asosiy yashash joylaridan ko'p kilometr uzoqqa ko'chib yurishardi. Ko'chmanchi chorvachilik Markaziy Osiyo dashtlarida uning tarixi davomida hukmron hayot tarzi bo'lgan. Tashqi kuzatuvchilar ko'pincha uni iqtisodiy jihatdan kam samarali, ko'chmanchining mehnati dehqonniki bilan taqqoslaganda sodda shakl deb hisoblagan bo'lsalar-da, aslida bu dasht resurslaridan foydalanishga mo'ljallangan murakkab ixtisoslashuv edi. Shunday bo'lsa-da, bu hayot tarzi baribir atrofdagi o'troq sivilizatsiyalar uchun qoloq va begona bo'lib qolgan. Ko'chmanchilar tarixi va ularning atrofdagi hududlar bilan aloqalari, ko'chmanchilarning harakat tsikllarini, chorvachilik talablarini, iqtisodiy cheklovlarni va asosiy siyosiy tuzilmani isbot talab qilmas darajada qabul qilganligi asosida rivojlangan edi.

1. Kuzmina Ye.Ye. Otkuda prishli indoarii? Materialnaya kultura plemen andronovskoy obshnosti i proisxojdeniye indoiransev. M. 1994. Ushbu maqolada muallif tomonidan qadimgi fors va hind qabilalarning mahalliy tili bu zaminga kirib kelgan Yevroosiyo cho'l va dasht qabilalarining qadimgi eroniy tillari tomonidan

³³ Массон В.М. Древнеземледельческая культура Маргианы // МИА, 1959. - № 73

yutib yuborilganligi, ularning tili va diniy tushunchalarida yaqinlik va nihoyat ularning asosiy so‘z boyligining umumiy ekanligi qayd qilinadi.

2. Teplouxov S.A. Andronovskaya kultura. Sibirskaya ensiklopediya. Novosibirsk.1929. Ilk bor fanga Andronovo madaniyati degan tushunchani kiritadi. Ushbu madaniyatga tegishli yodgorliklarni tizimli ravishda umumlashtiradi

3. Gryaznov M.P. Pogrebeniya bronzovoy epoxi v zapadnom Kazaxstane. Kazaki.vip.II. L.,1927. Garbiy Sibirning Andronovo yodgorliklari sopollarining sferasimon qorin yelkasi ustiga yoppasiga geometrik bosma uchburchaklardan iborat naqsh bosilganligi, shunday naqshli, yelkali sopol idishlar Orsk yodgorlilarida xam uchrashi va ularning bo‘g‘zida naqshlanmagan xoshiyasi borligini ta’kidlaydi. Bu belgilarni M.P. Gryaznov Andronovo madaniyatining Feodorov bosqichiga xos ekanligini asoslaydi.

4. Itina M.A Istoriya stepnix plemen Yujnogo Priaralya.M., 1977. Andronovo madaniyatining Tozabogyobliklar bilan munosabatini o‘rganadi. Janubiy Orol dengizi hududlarida olib borgan stratigrafik qazishmalari jarayonida Feodorov bosqichi sopol idishlarini Tozabog‘yob madaniyati madaniy qatlamlari ustida yotganligidan kelib chiqib, Andronovo madaniyatining Feodorov bosqichini mil.avv. II ming yillikning uchinchi choragi oxirlari bilan belgilaydi.

5. Zdanovich G.B. K voprosu ob andronovskom kulturno-istoricheskom yedinstve.//KSIA.vip.177.M., 1984. Andronovo madaniyati bosqichlarining birlari genetik bog‘liqligi masalasini ko‘taradi.

6. Smirnov K.F., Kuzmina Ye.Ye. Proisxojdeniye indoiransev v svete noveyshix arxeologicheskix otkritiy. M., 1977. Ushbu asrda mualliflar, hind-eron tillarning ilk vatani Sharqiy Yevropa dashtlari hisoblanib, bu hududlarda bronza davrida Katakomba va Sруб madaniyati urug‘ jamoalari yashagan va ular aynan shu tilning turli lahjalarida so‘zlashganlar. Keyinchalik ularning Yevroosiyo qismiga yoyilishi natijasida Andronovo madaniyati tarkib topadi.

7. Litvinskiy B.A., Okladnikov A.P., Ranov V.A. Drevnosti Kayrak-Kumov.Dushanbe.1962. Ushbu kitobda B.A. Litvinskiy tomonidan Farg‘onaning g‘arbiy qismida bronza davriga oid Andronovo madaniyatiga o‘xshash madaniyat yodgorliklari qayd etiladi. E’tiborlisi xuddi shu davrda Farg‘onaning sharqi qismida dehqonchilik bilan shug‘ullangan aholining chust madaniyati xukm surgan. Muallif, xuddi shuga o‘xshash madaniyat yodgorliklari Toshkent va Zarafshon vohasida ham

topilganligini qayd etib, ushbu madaniyatni Qaroq-Qum madaniyati deb atashni taklif etadi. Litvinskiy B.A. Andronovo madaniyat provinsiyasi “chamasi bir-biri bilan yaqin bog‘liq va qarindosh bo‘lgan madaniyatlar(shu jumladan O‘rta Osiyodagi chorvadorlar madaniyatlari ham)dan iborat bo‘lgan.

8. A.A. Spitsin. Drevnosti Sredney Azii. Ruk., Arxiv Leningradskix. otd. Inst. arxeol., f.5, d. №33, l.51. Rossiya Fanlar Akademiyasi Moddiy madaniyat tarixi institutining arxivida saqlanayotgan ushbu qo‘lyozmada muallif O‘rta Osiyoning shimolidan topilgan bronzadan ishlangan buyumlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni umumlashtirib, ular G‘arbiy Sibirdan, Volga daryosi havzasidan va janubiy rus cho‘llaridan topilgan bronza buyumlariga o‘xshashligini ta’kidlaydi.

9. Tolstov S.P. Drevnexorezmiyskiye pamyatniki v Kara-Kalpakii. VDI, 1939, №3, s.174. Ushbu maqolada muallif, Xorazmda bronza davrida Yevroosiyo cho‘llari bronza davri madaniyatining o‘ziga xos varianti bo‘lganligini qayd etib, uni Tozabog‘yob madaniyati deb nomlaydi.

10. Tolstov S.P. Drevniy Xorezm. M., 1948 s.68. Ushbu asarda S.P. Tolstov Andronova madaniyati vakillari hind-eron tilida so‘zlashganliklari borasidagi ilk ilmiy farazni ilgari suradi.

11. Bernshtam A.N. Spornie voprosi istorii kochevix narodov v drevnosti.//KSIE.vip.XXVI.M., 1957.s.19. Ushbu maqolada muallif Hindistonni bosib olgan oriylar aynan Andronovo madaniyati sohiblari bo‘lganligini ta’kidlaydi. Shuningdek, Srub va Andronovo madaniyati vakillari bilan savromat va saklar(mil.avv.VII-V asrlar) o‘rtasida genetik bog‘liqlik borligini yozadi.

10. Chernikov S.S. Vostochniy Kazaxstan v epoxu bronzi. -M.-L.:1960. Ushbu kitobda muallif O‘rta osiyodagi barcha chorvadorlarga tegishli yodgoliklarni andronovo madaniyatining janubiy guruhi deb nomlashni taklif etadi. Muallif fikricha, Yevroosiyo chorvadorlari O‘rta Osiyoda mil.avv. XII-IX asrlarda paydo bo‘ladi.

10. Formozov A.A. K voprosu o proisxojdennii andronovskoy kulturi. KSIIMK, XXXIX, M.,-L.,1951, s.18. Muallif fikricha, o‘zida alohida qabilalarga tegishli bo‘lgan andronovo madaniyati variantlaridan iborat andronovo madaniyat viloyati (“kulturnaya oblast) bo‘lganligini, madaniyatlar deb aynan variantlarni nomlash to‘g‘ri bo‘lishini ta’kidlaydi.

11. Ranniye kochevniki Sredney Azii i Kazaxstana. L., 1975

12. Kochevniki na granitsax Xorezma. M.,1979

13. Grach A.D. Drevniye kochevniki v sentre Azii. M.,1980

14. Pershis A.I. K voprosu o sotsialnix otnosheniyax u kochevnikov. Osnovnie problemi afrikanistiki: Etnografiya. Istoriya. Filologiya. - M., Nauka, 1973. Muallif fikricha, ko‘chmanchilar o‘z holicha faqat ilk sinfiy munosabatlar darajasigacha o‘sishi mumkin. Keyingi rivoji faqat qo‘shni dehqon va shahar jamoasi ta‘sirida rivojlanadi.

15. Tolstov S. P. Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab. –Toshkent.Fan.1964.

S. P. Tolstov O‘rta Osiyodagi boshqa sivilizatsiya markazlarining va ular bilan chegaradosh muzofotlarning tarixini dasht qabilalari tarixidan ajralgan holda tasavvur etish mumkin emas deb xisoblaydi.

16. Pavlenko Yu. V. Ranneklassovie obshestva: Genezis i puti razvitiya / AN USSR, In-t arxeologii. — Kiyev. 1989.

Yu.V. Pavlenko, "ko‘chmanchilar dunyosi o‘z holicha, ya’ni sivilizatsiyalashgan qo‘shni jamoalardan tashqarida rivojlanganda, ularga bo‘ysungan dehqon va shahar jamoalari bo‘lmaganda, ulardan soliqlar yig‘ilmaganda va nihoyat ularning bir guruhi o‘troqlashmaganda, o‘troqlashgan hududlarda shahar madaniyatining paydo bo‘lishi jarayonlari kechmaganda ko‘chmanchilar jamoasi hattoki ilk sinfiy munosabatlar darajasiga ham chiqq olmagan bo‘lardi", deb hisoblaydi.

17. Bratchenko S.N. Nijneye Podone v epoxu sredney bronzi. Kiyev.1976.

Bratchenkoning fikricha, Don daryosining quyi havzalarida tarkib topgan Abasheva va Paltavkina madaniyatlari sohiblari mil.avv. II-ming yillikning ikkinchi choragida Volga daryosining quyi havzalarida paydo bo‘lib, shu joylarning mahalliy aholisi bilan qorishib ketadi va ana shu qorishuv asosida hind-eron tilli yangi etnomadaniy kompleks (Andronovo madaniyati) tarkib topadi.

18. Gumilev L.N. Xunnu. Seredinnaya Aziya v drevniye vremena.M., 1969.s.23

Shimoliy Xitoy podsholigining yilnomlaida mil.avv. 1764 yilda turkiy tilli xunlar haqida ma’lumotlar uchraydi.

19. Isxakov M. Geografiya raspostraneniya drevnetyurkskix pismennqx istochnikov i voprosi etnogeneza tyurkskix narodov. «Tyurkologiya» №1. - Turkistan.2003. -s.7-12.

Qadimgi turkiy yozuv o‘zining ko‘plab mahalliy variantlariga ega bo‘lgan. Qadimgi turkiy yozuv yodgorliklari nafaqat O‘rxun va Yeniseyda, balki Janubiy Sibir,

Tog‘li Oltoy, Yoqutiston, Ob-irtish havzalari, Mo‘g‘ilistondan to Yettisuv o‘lkasigacha, Talas vodiysi, Farg‘ona vodiysi, Qashqadaryo vohasi, Qzog‘iston cho‘llari, Volga bo‘yi, Don daryosi havzasi, Shimoliy Kavkaz, Kuban daryosihavzasi, Qrim, Modova, yengriya va Bolgariya hududlarida ham uchraydi. Qadimgi turkiy yozuvning Dunay daryosi havzasigacha tarqalishi qadimda turkiy etnosni ulkan tarixiy-madaniy, ijtimoiy-siyosiy maydoni qanchalar kengligidan dalolat beradi.

20. V.M. Masson o‘zining Marg‘iyonaning qadimgi dehqonchilik madaniyati” nomli asarida «Baqtriyada yirik siyosiy birlashma (davlat) bo‘lgan, uning madaniy va siyosiy doirasi Marg‘iyona, mumkinki, Ariylar va So‘g‘diylargacha yoyilgan. Ikkinchi siyosiy kuch ko‘chmanchilar dunyosidir. Ularning har xil konfederatsiyasi bo‘lgan va turli ko‘chmanchi qabilalarni birlashtirib turgan. Mil. av. VI asr o‘rtalarida gegemonlik rolini Massagetlar bajargan” deb yozadi ³⁴.

21. Ko‘chmanchi chorvadorlar tarixiga bag‘ishlangan ilk asarlar jumlasiga Rossiya imperiyasi xukmronligi davrida yozilgan V.V.Grigorevning 1871 yilda Sankt-Peterburg shahrida chop etilgan “O skifskom narode sakax” asarini keltirish mumkin. Asarda mil. avv. II-milodiy VI asrlarda hozirgi O‘zbekiston hududlari va uning tevarak-atrof viloyatlarida tub joyli aholi tarkibiga yuyechji-eftalit va boshqa turkiy qabilalarning kelib qo‘shilishi va ularni asta-sekin o‘troq qishloq va shahar hayotiga moslashib borishi haqida to‘g‘ri so‘z yuritiladi.

22. Sovet davrida O‘rta Osiyo ko‘chmanchi chorvadorlar tarixiga bag‘ishlangan tadqiqotlar ichida 1965 yilda akademik Bo‘riboy Axmedov tomonidan chop etilgan Ko‘chmanchi o‘zbeklar davlati asarini keltirish mumkin. U o‘z ilmiy asarlarida ko‘proq etnik tarixga, Shayboniy o‘zbeklarining tarixiga, o‘zbek etnik nomining kelib chiqish tarixiga bag‘ishlagan³⁵. Dashti Qipchoqning ko‘chmanchi o‘zbeklari XV asrning oxiri va XVI asr boshlarida O‘rta Osiyoga kirib kelguniga qadar ham bu zaminda chorvador turkiy qavm va qabilalar yashaganligini to‘g‘ri ta’kidlaydi.

23. Mustaqillik yillarida ko‘chmanchi chorvadorlar tarixiga bag‘ishlangan bir qator ishlar ashr etildi. Ana shunday fundamental tadqiqotlardan biri akademik Karim Shoniyozovning 2001 yilda “Sharq” nashriyotida “O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni” nomli monografiyasi chop etildi. Ushbu asar o‘z davri

³⁴ Массон В.М. Древнеземледельческая культура Маргианы // МИА, 1959. - № 73

³⁵ Ахмедов Б.А. Государство кочевых узбеков. Москва - 1965. Ўша муаллиф. Ўзбек улуси. Т.: 1992.

tarixshunosligida haqiqatda fundamental xarakterga ega. Asar tarixiy yozma manbalar, arxeologik, antropologik, numizmatik, etnografik va boshqa manbalar tahlili asosida yozilgan bo‘lib, unda o‘zbek xalqining asosiy negizini Movarounnahr va unga tutash hududlarda qadimdan yashab kelayotgan chorvador turkiy aholi tashkil etganligi haqida fikr yuritiladi.

24. Ko‘chmanchi skif-saklarning Yevroosiyo dashtlarida yashovchi ajdodlari etnik kelib chiqish jihatidan turkiy qavmlar ekanliklari bilan ulardan farq qiladi. Bu haqda tarixchi Andrey Lizlovning “Skiflar tarixi” asarida tegishli ma’lumotlar berilgan, bu tarixchi olim skiflarning turkiyligini isbotlagan ³⁶.

25. XIX asrning o‘rtalarigacha ko‘pchilik rus tarixchilari skiflarni turkiyligini shubhaga olmaganlar. Masalan, venger olimi Geza Kuun “Kumanikus Kodeksi”(Slovar kipchakskix yazikov) asarida³⁷, turk olimi Xasan Ato Abushiy “Turk qavmlari tarixi” asarida skiflarning turkiyligini asoslashgan ³⁸.

26. Ammo, taniqli boshqird tarixchisi Zaki Validiy To‘g‘on skiflarni turkiy etnosga kiritadi ³⁹.

27. Sovet davri rasmiy tarix fanida ham qozoq antropologi A.S. Amanjолоv, yozuvchi O. Sulaymonov, kavkazshunos I.M.Miziyev va K.T. Laypanovlar skif-sarmat va alanlarning asosiy tarkibi turkiyzabon bo‘lganligini lingvistik, arxeologik va antropologik materiallar tahlili asosida asoslashga intilganlar⁴⁰. Biroq, ularning har biri rasmiy tarixga aylangan konsepsiyaga zid fikr aytgani bois sovet davri tarixshunosligida tanqid qilingan.

28. Akademik A. Asqarov O‘rta Osiyo saklari aslida Avesto turlari bo‘lib, mil. avv. II ming yillikning o‘rtalarida oriylarning janubga migratsiyasi davrida Yevroosiyo dashtlaridan O‘rta Osiyoga kirib kelgan turkiy Andronovo qabilalari ekanligini ilmiy isbotlagan⁴¹. Ammo dastlab, ularning eroniy til muhitiga tushib

³⁶ Андрей Лизлов. История скифов. 1787. Қайта нашр қилинди: Москва, 1990.

³⁷ Геза Куун.Куманикус Кодекси. 1881. Кипчакские языки: куманский и армяна-кипчакский. Изд. «Наука». Алма-Аты, 1987

³⁸ Габаши Х.Г. История туркских народов. 1909. с.54. Ўзбекча нашри: Ҳасан Ато Абуший. Турк қавмлар тарихи. “Чўлпон” нашриёти. Тошкент, 1993.

³⁹ Ахмад Заки Валиди Тўғон. История тюркоа и татар. Казан, 1912.

⁴⁰ Амонжолов А.С. История и теория древнетюркского письма. Алматы, 2003; Мизиев И.М. Шаги к истокам этнической истории Центрального Кавказа.. Налчик, 1986, стр. 35-56, 123-138; Лайпанов К.Т., Мизиев И.М. О происхождении туркских народов. Черкесск. 1993, стр. 45-86.

⁴¹ Асқаров А. Ориилар муаммоси: янгича қарашлар ва ёндашувлар. “Ўзбекистон тарихи моддий маданият ва ёзма манбаларда”. Т.: 2005. 69-80 бетлар.

qolgan qismigina eroniylashadi, lekin, ko‘pchilik turkiy etnik guruhlar dastlab “orolcha” sifatida yashab, uzoq asrlar davomida o‘z tillarini yo‘qotmaganlar. Keyingi asrlarda Yevroosiyo dashtlarining jangavor xalqi - turk qabilalarining O‘rta Osiyoga kirib kelishining oxiri bo‘lmaydi, aksincha yanada avj oladi. Ayniqsa, ularning Amudaryo o‘rta havzalarigacha bo‘lgan hududlarda ta’sir doirasi kengayib, O‘rta Osiyoning shimolida, Sirdaryoning o‘rta va quyi havzalariga kelib o‘rnashgan chorvador turkiy qabilalar sekin-asta o‘troqlashib, antik davrga kelganda o‘ziga xos madaniyat (Qovunchi madaniyati) tarkib topadi, turkiy til esa bu mintaqalarda aholining jonli tiliga aylanadi. Bu rasmiy tarixning bugungi kundagi tarixiy haqiqatidir. O‘zbekiston tarixchi - arxeologlari, etnolog va lingivistlarining bugungi kundagi vazifasi bu jarayonni ilmiy asosda yoritib, o‘zbek xalqi ajdodlarining tag zamini yuksak o‘troq madaniyat sohiblari bo‘lganligini, ularning jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissalar va o‘zbek xalqining turkiy tilli xalq sifatida shakllanish jarayonlarini xolis, ortiqcha milliy ehtirolsiz, ilmiy asosda yaratib berishlikdir.

Qadimgi sug‘diylar va O‘rta Osiyoning boshqa eroniy tilli qavmlari qadimdan turkiylar bilan (tildan boshqa) har tomonlama qardoshdirlar. Ularning O‘rta Osiyoni janubiy va markaziy viloyatlarida makon topganlari ikki tilda so‘zlashganlar. Bu holat moddiy madaniyatda, yozma manbalarda yaxshi kuzatiladi.

29. Keyingi 30-40 yillar davomida xitoylik mutaxassislar Yapon olimlari bilan hamkorlikda Qadimgi Xitoy podsholiklarining 24 sulolaviy tarixini o‘rganishda katta yutuqlarga erishdilar. Ushbu sulolaviy tarixning dastlabki bir necha jildlari Yevroosiyaning qadimgi turkiy qabila va elatlari tarixi bilan bog‘liq. Ushbu asarlar asosida bitilgan Xitoy ensiklopediyalarida Yevroosiyo dashtlarining chorvador Andronovo madaniyati aholisining tili masalasida aniq ma’lumotlar keltirilgan. Bronza davrining Andronovo madaniyati aholisining yodgorliklari O‘rta Osiyo, jumladan, O‘zbekistonning har bir viloyati hududlaridan o‘nlab-yuzlab joylardan topib o‘rganilgan.

Sovet davri tarixshunosligida ularni eroniy tilli aholi deb talqin qilinar edi. Biroq, ularning tili masalasidagi yangi ma’lumotlar Yevroosiyo dashtlarining chorvador aholisi, shuningdek, Andronovo etnomadaniy qatlamga tegishli O‘rta Osiyolik bronza davri chorvadorlari turkiyda so‘zlashganliklarini tasdiqlaydi. Mana shu birlamchi yozma manbadan olingan ma’lumotlar o‘zbek xalqi etnogenezining boshlang‘ich

nuqtasini mavjud qarashlarga zidli o‘laroq, antik davrdan so‘nggi bronza davriga qadimiylashtirish imkoniyatini berdi.

Devid V. Entonining “The Horse, the Wheel, and Language” (2007) kitobi oriylarni o‘rganishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu kitob O‘rta Osiyo bo‘ylab ko‘chib yurgan va yashagan oriylar, ya‘ni hind-yevropalik ko‘chmanchi xalqning o‘sha hududlarga ko‘rsatgan ta‘sirini ko‘rib chiqadi. Entoni tadqiqotlari oriylarning ijtimoiy tabaqalarga asoslangan tuzilmalari, ayniqsa, keyinchalik Fors va Hindiston jamiyatlarida sezilarli darajada ta‘sir ko‘rsatgan sinflar tuzilmasi bilan bog‘liq jihatlarni o‘rganishga katta hissa qo‘shadi. U oriylar madaniyatida jangchi va ruhoniylar sinflari kabi strukturalar mavjudligini ta‘kidlaydi. Bu tuzilmalar Vedalar jamiyatidagi kasta tizimining shakllanishida asosiy rol o‘ynagan.

Xulosa. Oriylarning Hindiston va Eron madaniyatiga ta‘siri Edvin Brayentning “The Quest for the Origins of Vedic Culture” (2001) kitobida kengroq o‘rganiladi. Brayent, oriylarning Vedalar va Avesta matnlariga asoslangan diniy va mafkuraviy meroslarini o‘rganib, ularning o‘zlari o‘zaro to‘qnashgan jamiyatlarda ijtimoiy tuzilmalarga ta‘sir qilganligini ko‘rsatadi. Hindistondagi Brahmanlar, Kshatriyalar, Vaishiyalar va Shudralardan iborat kast tizimi oriylar tomonidan keltirilgan ijtimoiy ierarxiyaning davomidir.

Gerg Leninger va R.V. Conningem tomonidan yozilgan “Early Aryan Society and State Formation” (2016) ushbu kitobda oriylarning jamiyat tuzilmalari va davlat tuzish jarayonlari o‘rganiladi. Ularning tahliliga ko‘ra, oriylar harbiy ierarxiya va ruhoniylar o‘rtasidagi bog‘liqlik orqali o‘z jamiyatida tartibni saqlab kelgan. Kitobda oriylarning davlat boshqaruvi markazlashgan bo‘lmaganligiga qaramasdan, ular tomonidan tashkil etilgan urug‘-qabila birlashmalari o‘zini himoya qilish va urushlar orqali yangi hududlarni egallashga intilganligi ta‘kidlanadi. Mualliflar, shuningdek, Vedik Hindistondagi davlat tuzilmalarida ruhoniylar va jangchilarning o‘rni muhim ekanligini, bu holat esa keyinchalik davlat tuzilmalarini shakllantirganini qayd etadi.

Maks Muller o‘zining “A History of Ancient Vedic Society” (1883)

kitobida Vedalar jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi haqida batafsil ma‘lumot beradi. Muller, o‘zining tadqiqotida, oriylar jamiyatida diniy rahbarlik va hokimiyatni birlashtirgan murakkab tizim mavjudligini ko‘rsatadi. Vedalar davridagi oriylar madaniyatida davlat boshqaruvi ko‘pincha zodagonlikka asoslangan,

ruhoniylar va jangchilar sinfi esa jamiyatning asosiy tabaqalari hisoblangan. Mullarning tadqiqotlari, ayniqsa, oriylarning ijtimoiy va siyosiy tashkilotini hamda ularning hududiy davlatlar tuzishiga olib kelgan asosiy omillarini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega.

Erving Kristensenning “The Aryans and the Ancient Persian Empire” (1958) asarida oriylarning Fors imperiyasiga ta’siri va ularning ijtimoiy va siyosiy tuzilmalarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Kitobda Fors davlatchiligiga asos solgan oriylarning davlat tuzish qobiliyati, ularning ijtimoiy tuzilmasi va hokimiyat iyerarxiyasi haqida batafsil ma’lumot keltiriladi. Kristensen Fors davlatining oriylar tomonidan tashkil etilganligini ta’kidlab, davlatning barqarorligi va ijtimoiy tartibini ta’minlashda ruhoniylar va jangchi sinfining o‘rnini muhim deb hisoblaydi. Shu bilan birga, Fors imperiyasining kengayishi va ko‘chmanchi oriylar davlatchiligi o‘rtasidagi bog‘liqlik Kristensen asarida mukammal ifoda etilgan.

Tomas Trautmannning “Aryan Civilization and Statecraft” (1997) asarida oriylarning ijtimoiy va siyosiy tuzilmalari bilan bog‘liq keng qamrovli tadqiqotni o‘z ichiga oladi. Trautman ariylarning jangchi va ruhoniylar sinfi o‘rtasidagi rollarni tadqiq etib, ular orqali davlat va jamiyat tizimining tashkil topganligini ta’kidlaydi. Aryan jamiyatida kuchli jangchi sinf davlatning harbiy himoyasini ta’minlash bilan birga, hukmronlik qiluvchi sinfning ko‘pgina qirralarini tashkil etgan. Ruhoniylar sinfi esa ijtimoiy tuzilmani mustahkamlash va diniy tartiblarni saqlash bilan shug‘ullangan. Trautman, shuningdek, oriylar davlatida fuqarolik va siyosiy hokimiyatning bir joyda mujassamlashganligini ko‘rsatadi.

Foydanilgan adabiyotlar.

1. OBID, N., ULUGBEK, M., SHAROF, M., & RUSTAM, N. (2022). SOME CONSIDERATIONS OF THE COUNTRY LIFESTYLE DURING THE PERIOD OF PUBLIC COLLECTIVIZATION. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(1), 86-94.
2. Nazarov, O. R., & Nematov, R. A. O. (2020). FROM THE HISTORY OF UZBEKISTAN'S COOPERATION WITH UNESCO. *Bulletin of Gulistan State University*, 2020(4), 45-49.

3. Назаров, О., & Қосимова, Э. (2024). ҚЎҚОН ХОНЛИГИДА ТАЪЛИМ ДАРГОҲЛАРИ ФАОЛИЯТИГА ОИД АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР. *Talqin va tadqiqotlar*, 2(3), 40.
4. Неъматов, Р. (2023). Илк ўрта асрлар Хоразм тарихшунослигининг бугунги ҳолати. *История и культура центральной Азии*, 1(1), 122-125.
5. Неъматов, Р. (2023). Хоразм Африғийлар сулоласи–Турк хоқонлиги сиёсий алоқалари. *Journal of Fundamental Studies*, 1(7), 16-23.
6. Неъматов, Р. (2023). ИЛК ЎРТА АСРЛАРДА ХОРАЗМДА КЕЧГАН ЭТНОМАДАНИЙ ЖАРАЁНЛАР. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences*, 3(6), 14-23.
7. Mavlyanov, U. N. (2020). Problems of Ontology in the Heritage of Ali Safi. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 7(7), 540-545.
8. Mavlyanov, U. (2022). ABOUT “THE ART ACADEMY OF BAYSUNKUR”. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(06), 133-138.
9. Мавлянов, У. Н. (2020). ПРОБЛЕМЫ ОНТОЛОГИИ И НАСЛЕДИИ АЛИ САФИ. *Вестник Российского философского общества*, (1-2), 200-209.
10. Маргилоний, М. А. (1999). Тарихи Азий. *Тошкент: Маънавият*.
11. Сангирова, Д. Х. (2000). Тарихи Азиз. *важный источник по истории изучения царского колониального периода: автореф.... канд. ист. наук. Ташкент*, 1-2.
12. Sangirova, D. (2019). Hajj and the ruling pilgrims. *A look at the past*, (18), 27.
13. Абдулхай, Г. У. (2020). ТУРКИСТОН АССР: ҚАНДАЙ ДАВЛАТ БЎЛИШИ КЕРАК ЭДИ. *ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ*, 3(1).
14. Urazalievna, A. G., & Fotima, X. (2024). TURKISTON QO‘RBOSHILAR HARAKATI VA ULARNING FAOLIYATI. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 4(1), 5-10.
15. Urazalievna, A. G., & Aziza, P. (2024). FARG‘ONA VODIYSIDAGI ISTIQLOLCHILIK HARAKATLARI VA UNING TARIXIY

АНАМИЯТИ. IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 4(1), 12-15.

16. Кудратов, С. С. (1992). Поселения левобережья р. Нарын в Фергане (III в. до н. э.–V в. н. э.): Дис.... канд. ист. наук. СПб.

17. Кудратов, С., & Маъруфов, Ш. (2021). МИРЗАЧЎЛДАГИ ҚАДИМГИ СУВ ИНШОАТЛАРИ. ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ, 4(11).

18. Кудратов, С. (2022). Археологик ёдгорликлар–ёшларда ватанпарварлик туйғусини шакллантиришнинг муҳим омили. *Значение цифровых технологий в изучении истории Узбекистана*, 1(01), 363-366.

19. Galiyev, S. (2024, September). O ‘ZBEKISTONDA IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR MAXSUS TA'LIMI. In *CONFERENCE ON THE ROLE AND IMPORTANCE OF SCIENCE IN THE MODERN WORLD* (Vol. 1, No. 8, pp. 110-114).

20. Galiyev, S. (2024). O ‘ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA'LIM ASOSLARINING O ‘RNATILISHI VA RIVOJLANISHI. *Journal of science-innovative research in Uzbekistan*, 2(9), 70-74.

21. Галиев, С., Абдуматов, А., & Неъматов, Р. (2025). ГЕРОИ-ТАТАРЫ УЗБЕКИСТАНА, УЧАСТВОВАВШИЕ ВО ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЕ. *Наука и инновации в системе образования*, 4(4), 35-39.

22. Yuldashevich, A. U., Akhmatkulovich, A. A., & Ugli, R. I. K. (2024). STRUGGLE FOR THE NEWLY FORMED ORENBURG-TASHKENT CARAVAN TRADE ROUTE OF THE BUKHARA EMIRATE AND THE KOKHAN KHANATE AT THE BEGINNING OF THE 19TH CENTURY. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF HISTORY*, 5(12), 16-21.

23. BOSIMOVICH, T., & ALISHER, A. (2022). FROM THE HISTORY OF THE ANCIENT DEFENSE WALLS. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(5), 61-65.

24. Назаров, О., & Абдуматов, А. (2024). ҲАДИС ИЛМИ РИВОЖИДАГИ ОЛТИН ДАВР. *Ilm-fan va ta'lim*, 3 (18)).

25. Маматов, Ш. М., & Алибеков, У. Ю. (2019). Повышение благосостояния сельского населения Узбекистана в свете Стратегии действий. *Наука, техника и образование*, (5 (58)), 63-65.

26. Алибеков, У. Ю. (2015). Календари, связанные с наводнениями, в этноэкологической культуре узбекского народа. *Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук*, (5-1), 100-103.
27. Алибеков, У. Ю. (2011). ЭТНОЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ТРАДИЦИИ В ГОЛОДНОСТЕПСКОМ РЕГИОНЕ И ИХ МЕСТО В ОХРАНЕ ПРИРОДЫ. *ЭКОЛОГИЯ ДРЕВНИХ И ТРАДИЦИОННЫХ ОБЩЕСТВ: сборник докла*, 247.
28. Хамидова, Х., & Мирзаева, Н. (2022). Xx asr boshlarida mirzachol vohasidagi agrar o‘zgarishlar (—Туркестанское сельское хозяйство jurnali asosida). *Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы*, 1(1), 631-634.
29. Мирзаева, Н. Д., & Расулова, М. А. К. (2016). К вопросу о религиозном составе населения русских поселков в Голодной степи (начало XX века). *Проблемы современной науки и образования*, (11 (53)), 44-45.
30. Мирзаева, Н. (2011). Русские поселения Мирзачульского оазиса и их социально-экономическое положение в конце XIX—начале XX века. *Каталог авторефератов*, 1(1), 1-30.
31. Абдушукурова, И. К. (2018). Роль и место семьи в формировании патриотизма и гражданской позиции у молодежи. *Вопросы науки и образования*, (8 (20)), 184-185.
32. Абдушукурова, И. К., & Самадов, Б. К. (2016). О мерах по борьбе против торговли людьми. *Научный журнал*, (6 (7)), 140-141.
33. Абдушукурова, И. К. (2017). Воспитание студентов в аспекте молодежной политики. *Достижения науки и образования*, (6 (19)), 77-78.
34. Kudratov, D. (2023). ABOUT THE SHRINE OF KHOJAMUSKENT FATHER IN JIZZAH OASIS. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, 3(12), 73-78.
35. Қудратов, Д. (2022). IX-XIV АСРНИНГ ЎРТАЛАРИ ШАҲАРЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ОМИЛЛАРИ. *RESEARCH AND EDUCATION*, 236.
36. Qudratov, D. (2021). PECULIARITIES OF THE FIRST URBANIZATION PROCESSES IN THE FERGANA VALLEY. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF HISTORY*, 2(12), 13-16.

37. Alibekov, U., & Rayimjonov, I. (2024). TURKIY XALQLARNING KELIB CHIQISHI XIX ASR SHARQSHUNOSLARINING TALQINIDA. *Elita. uz-Elektron Ilmiy Jurnal*, 2(1), 267-270.
38. Rayimjonov, I. X. O. G. L. (2022). ERSHI (MINGTEPA) HUDUDIDAGI TARIXIY-ARXEOLGIK YODGORLIKLARI XUSUSIDA. *Scientific progress*, 3(5), 193-197.
39. Xoshimjon o‘g‘li, R. I. (2024). 8.4 MOVAROUNNAHRGA ISLOM DININING KIRIB KELISHI VA UYG‘ONISH DAVRINING BOSHLANISHI. *Innovative technologies in construction Scientific Journal*, 8(1), 12-15.
40. Шадманкулова, М. М. (2018). СОЧЕТАНИЕ ЛИБЕРАЛЬНЫХ-ДЕМОКРАТИЧЕСКИХ ИДЕЙ В СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ УЗБЕКИСТАНА. *Социосфера*, (4), 226-232.
41. Шодмонкулова, М. М. (2018). ЛИБЕРАЛИЗМ: ИСТОРИЯ И СОВРЕМЕННОСТЬ. *Наука и образование: проблемы, идеи, инновации*, (4), 26-30.
42. RAXIMOVICH, N., MUTALLIB, I., & MA‘RUFOV SHERZOD, K. O. G. (2022). HISTORICAL FACTORS THAT CONTRIBUTED TO THE DEVELOPMENT OF SCIENCE AND CULTURE IN CENTRAL ASIA. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 2(4), 160-165.
43. Ma‘rufov, S., & Abdullayev, A. (2024). O‘RTA OSIYODA MUSIQA SAN‘ATINING VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISH TARIXI. *Talqin va tadqiqotlar*, 1(1).
44. MA‘RUFOV, S. (2025). SIRDARYO VILOYATI HUDUDIDAGI MANZILGOHLARNING O‘RTA ASRLARDAGI MODDIY MADANIYATI XUSUSIDA YANGICHA QARASHLAR. *News of the NUUz*, 1(1.2. 1), 23-26.